



## O'ZBEK VA INGLIZ TILLARI FRAZEMALARINING LEKSIK-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

**Bo'ronova Mekkamtoş Xoliqulovna**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Filologiya fakulteti  
"Xorijiy til va adabiyoti" quyi kurslar kafedrası o'qıtuvchısı  
mexkamtoşb@gmail.com  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17370605>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarning leksik-grammatik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Frazemalar tildagi barqaror birikmalar sifatida xalqning dunyoqarashi, madaniyati va milliy tafakkurining in'ikosini ifodalaydi. Maqolada har ikki tildagi frazeologik birliklarning tuzilish modeli, grammatik shakllanishi hamda leksik tarkibi o'rganiladi. Shuningdek, ularning tarjima jarayonidagi ekvivalentlik darajasi va milliy madaniyatga bog'liqligi tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** frazeologiya, frazema, turg'un birikma, leksik ma'no, grammatik shakl, ekvivalentlik, madaniy tafakkur

### Аннотация

В данной статье проводится сравнительный анализ лексико-грамматических особенностей фразеологических единиц узбекского и английского языков. Фразеологизмы, являясь устойчивыми словосочетаниями, отражают мировоззрение народа, его культуру и национальное мышление. В статье рассматриваются структурные модели, грамматическое оформление и лексический состав фразеологических единиц обоих языков. Кроме того, анализируется степень их эквивалентности в процессе перевода и связь с национальной культурой.

**Ключевые слова:** фразеология, фразема, устойчивое выражение, лексическое значение, грамматическая форма, эквивалентность, культурное мышление.

### Annotation

This article provides a comparative analysis of the lexical and grammatical features of phraseological units in the Uzbek and English languages. Phraseologisms, being stable word combinations, reflect the worldview, culture, and national thinking of a people. The article examines the structural models, grammatical formation, and lexical composition of phraseological units in both languages. In addition, it analyses the degree of their equivalence in the process of translation and their connection with national culture.

**Keywords:** phraseology, phraseme, fixed expression, lexical meaning, grammatical form, equivalence, cultural thinking.

Til – millat ruhining ko'zgusi, xalq tafakkuri va madaniyatining bevosita aksidir. Ayniqsa, frazeologik birliklar tildagi obrazli ifodaning eng yorqin namunasidir. Frazemalar tildagi so'z birikmalarining barqarorlashgan shakli bo'lib, ularning leksik-grammatik tuzilishi har bir tilning o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etadi. O'zbek va ingliz tillari frazeologizmlarining o'rganilishi nafaqat tilshunoslik nuqtayi nazaridan, balki madaniyatlararo muloqot, tarjimashunoslik va lingvokulturologiya sohalari uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Frazeologiyaning umumiy tavsifini quydagicha keltiris mumkin bo'ladi. **Frazeologiya** – bu tilshunoslikning barqaror so'z birikmalarini, ya'ni turg'un birikmalarni o'rganuvchi sohasi hisoblanadi. Frazemalar ikki va undan ortiq so'zlarning bir butun ma'no ifodalovchi, leksik

jihatdan mustahkam bog'langan birikmalaridir. Masalan, o'zbek tilida *"ko'ngli tog'dek"*, *"ko'z yumdi"*; ingliz tilida esa *"spill the beans"* (sirni ochmoq), *"break the ice"* (muloqotni boshlamoq) kabi birliklar bunga misol bo'la oladi.

Leksik xususiyatlari esa O'zbek va ingliz tillaridagi frazemalar ko'pincha metaforik ma'noga ega. Ularning leksik tarkibida milliy urf-odat, tarixiy tajriba, tabiat va hayot tarziga oid so'zlar uchraydi. O'zbek tilida: *"ko'ngli g'ash bo'ldi"*, *"qovog'ini solmoq"* kabi ifodalar inson kayfiyati bilan bog'liq obrazlardan hosil bo'lgan. Ingliz tilida: *"hit the sack"* (uxlamoq), *"once in a blue moon"* (juda kam hollarda) kabi frazemalar madaniy-assotsiativ mazmunga ega.

Grammatik xususiyatlari hususida fikr yuritganimizda quydagilarni keltirishimiz mumkin. O'zbek tilidagi frazemalar ko'pincha fe'l asosida tuziladi: *"ko'z oldiga keltirmoq"*, *"og'zi qulog'ida"*. Ingliz tilida esa frazemalar ko'pincha fe'l + ot yoki fe'l + predlog shaklida bo'ladi: *"take part in"*, *"look after"*, *"give up"*. Bu grammatik strukturalar har ikki tilda turg'unlik, barqarorlik va o'zgarmaslik xususiyatiga ega. Shu bilan birga, frazemalar tarkibidagi so'zlar grammatik jihatdan tahrirga kam darajada bo'ysunadi. Tarjima va ekvivalentlik masalalari bu o'z navbatida, frazeologik birliklarni tarjima qilish jarayonida ekvivalent topish ko'pincha murakkab kechadi. Chunki har bir frazema madaniyat va xalq tafakkuri bilan uzviy bog'liq. Masalan, ingliz tilidagi *"the ball is in your court"* ifodasi o'zbek tilida *"endilikda navbat sendadir"* tarzida ekvivalent tarzda tarjima qilinadi.

Ba'zi frazemalar esa so'zma-so'z tarjimada ma'nosini yo'qotadi, shuning uchun kontekstual yoki madaniy mos ekvivalent topish talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek va ingliz tillari frazeologizmlari xalq madaniyati, urf-odatlari va dunyoqarashining leksik-grammatik ifodasi sifatida muhim o'rin tutadi. Ularning o'zaro tahlili tillararo farqni aniqlash, tarjima nazariyasini boyitish hamda madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Frazemalar tildagi badiiylik, obrazlilik va emotsional boylikni oshiradi, shuningdek, xalq tafakkurining ramziy ifodasini ta'minlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov F. "O'zbek frazeologiyasining nazariy masalalari". – Toshkent: Fan, 2019.
2. Kunin A.V. "English Phraseology: A Linguistic Study". – Moscow, 1996.
3. Rahmatullayeva M. "Tilshunoslikka kirish". – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
4. Cowie A.P. "Phraseology: Theory, Analysis, and Applications". – Oxford, 1998.